XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 14 - noyabr VI-57-181-5-71-K/22 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 1-3-chorak qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining joriy yil tuman mahalliy byudjetining 1-3-chorak yakunida daromadlarning rejadan orttirilib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashi,

QAROR QILADI :

1. Karmana tuman hokimligi tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Karmana tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasi talablaridan kelib chiqib, tuman hokimining Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2022-yil 1-3 chorak daromadlarning reja ko‘rsatkichlaridan oshgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq, tuman Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 27-apreldagi VI-48-64-5-71-K/22 sonli qaroriga asosan 2-ilovaga muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

4.Tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ ajratilgan tashkilotlar rahbarlariga tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning sarflanishi va natijadorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashiga taqdim etib borishi vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Urinov), tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Rustamov) bilan birgalikda:

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Rustamov), tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Azamov) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashning mahalliy byudjetni shakillantirish va ijro etish, byudjet islohotlari komissiyasi raisi (S.Vafoyev)ga topshirilsin.

Tuman Kengashi raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Karmana tuman
Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-57-181-5-71-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 1-3-chorak yakunida daromadlarning rejadan orttirilib bajarilgan qismi hisobidan yo’naltirilgan mablag’lar

T/r	Tashkilot nomi	Maqsadi	Ajratilgan mablag’ (ming.so’mda)
1	Tuman hokimligi	Yoshlar hududiy jamg’armalariga	142 802,0
2	Tuman hokimligi	Ayollar hududiy jamg’armalariga	251 702,0
3	Tuman hokimligi	Tuman xokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi" ga	285 604,0
4	Tuman hokimligi	Elektron hujjatlar aylanish tizimidan foydalanishni texnik jihatdan qo’llab-quvvatlash "Doment va Xosteng" bilan bog’liq xarajatlarga	15 915,0
5	Tuman hokimligi	Qishloq xo'jaligiga mo'ljalangan yer uchastkalarining yer fondi toifalarini o’zgartirish bilan bog'liq xarajatlariga	90 473,0
6	Tuman Mahalla va nuroniylarni qo’llab quvvatlash bo’limiga	Yangidan tashkil etilgan "Buyuk ipak yo’li", "Dehqonobod" va "Yangi hayot" mahalla fuqarolar yig’inlari binosi mavjud bo’lmaganligi sababli, vaqtincha binoni ijara to’lovi xarajatlariga	12 225,0
7	Tuman maktabgacha ta’lim bo’limiga	Tumanda "Yashil makon" dasturi doirasida ekiladigan ko’chatlar sotib olish xarajatlariga	20 000,0
8	Tuman Xalq ta’limi bo’limiga	Tumanda "Yashil makon" dasturi doirasida ekiladigan ko’chatlar sotib olish xarajatlariga	20 000,0
9	Tuman tibbiyot birlashmasiga	Tumanda "Yashil makon" dasturi doirasida ekiladigan ko’chatlar sotib olish xarajatlariga	20 000,0

10	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga	Tumanda "Yashil makon" dasturi doirasida ekiladigan ko’chatlar sotib olish xarajatlariga	50 000,0
x	**jami**		**908 721,0**

Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-57-181-5-71-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetning 1-chorak daromadlarning reja ko’rsatkichlaridan oshgan qismi hisobidan ajratilgan mablag’larga kiritiladigan o’zgartirish

T/R	Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori raqami va sanasi	Tashkilot nomi	Maqsadi	Kamay-tiriladigan mablag’
1	27,04,2022 VI-48-64-5-71-K/22	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligi balansida bo’lgan yotoqxona binosini joriy ta’mirlash xarajatlariga	-50 000,0
x	**JAMI**			**-50 000,0**